# Jizzax viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

*2025- yil yanvar-aprel dastlabki ma’lumot*

**I.** CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
IV. METAMA’LUMOTLAR
V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

## I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 691 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 591 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-aprel oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 298,4 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 108,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 201,7 mlrd so‘mni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 125,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining tovar aylanmasi 2 185,1 mlrd so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 911,6 mlrd so‘mni (o‘sish sur’ati  112,6 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’ati** *(%da)*




Mavzuga doir havola:  Chakana savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (oylik)

**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi**
*(ulushi foizda)*




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 725 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 36 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 689 tani tashkil qildi.

Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar-aprel oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 672,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 11,0 % ga o‘sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 568,0 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,8 % ni tashkil qildi.

**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi** *(mlrd so‘m)*




Mavzuga doir havola: Ulgurji savdo hajmi (oylik)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar Zomin (4,0 m.), G‘allaorol (135,8 %), Do‘stlik (109,8 %), Forish (108,6 %) va Zarbdor (107,6 %) viloyatlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’atlari** *(foizda)*




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o‘sish sur’ati (oylik)]

## III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 047 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 046 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-aprel oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 827,6 mlrd so‘mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 92,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’atlari** *(foizda)*



## IV. METAMA’LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, O’zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko‘rsatmalar va tavsiyalar “Milliy hisoblar tizimi –2008”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko‘rsatkichini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo‘mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda hisoblangan.

## V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ulgurji savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)


| **Chop etishga masul:** Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo‘limi | **Bo‘lim boshlig‘i:** D.Mayliboyeva Tel: +998722215126 (2540) | **Ijrochi:** J. Sangirov Tel: +998722215126 (2540) e-pochta: trade@stat.uz | **Manzil:** 130100, Jizzax sh.,To'qimachilar ko‘chasi, 7-uy |
|---|---|---|---|